

ARAB TILIDA “ليس” FE’LIGA O‘XSHAB ISHLATILADIGAN “ما” VA “لا” INKOR VOSITALARI

Usmonov Murodjon Ibrohim o‘g‘li

Yangi asr universiteti. Filologiya va tillarni o‘qitish

(ShMT) 101.22. 4-kurs talabasi

Baxodir Yuldashev

Yangi asr universiteti Arab tili ‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida “ليس” fe’liga o‘xshab ishlatiladigan “ما” va “لا” inkor vositalarining grammatik xususiyatlarini Zamaxshariyning “Al-Mufasssal” asari asosida tahlil qiladi. Tadqiqot ushbu vositalarning ism va xabar o‘rtasidagi sintaktik munosabatni qanday shakllantirishi, ularning qo‘llanish shartlari hamda semantik vazifalarini izohlaydi. Shuningdek, “اسم ما ولا المشبهتين بليس” ning qo‘llanish namunalari “Al-Mufasssal”dagi nazariy mezonlar bilan solishtirilib sharhlanadi. Maqola Zamaxshariy qarashlari orqali arab tilidagi inkor tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Mushabbahot bi-laysa (o‘xshatilgan vositalar), Zamaxshariy nazariyasi, Laysa fe’li, Sintaktik munosabat (ism–xabar), Inkor vositalari.

ABSTRACT. This article examines the grammatical features of the negative particles “ما” and “لا”, which function similarly to the verb “ليس” in Arabic, based on al-Zamakhshari’s work “Al-Mufasssal.” The study explains how these particles establish the syntactic relationship between the subject and the predicate, their conditions of use, and their semantic roles. It also analyzes examples of the usage of “اسم ما ولا المشبهتين بليس” in comparison with the theoretical principles outlined in Al-Mufasssal. The article contributes to a deeper understanding of the Arabic negation system through the perspectives of al-Zamakhshari.

Keywords: Mushabbahot bi-laysa (o‘xshatilgan vositalar), Zamaxshariy

nazariyasi, Laysa fe'li, Sintaktik munosabat (ism–xabar), Inkor vositalari.

Аннотация: В данной статье анализируются грамматические особенности отрицательных частиц «ما» и «لا», функционирующих подобно глаголу «ليس» в арабском языке, на основе труда аз-Замахшари «Аль-Муфасссал». Исследование разъясняет, как эти частицы формируют синтаксические отношения между подлежащим и сказуемым, условия их употребления и семантические функции. Кроме того, рассматриваются примеры использования «اسم ما ولا المشبهتين بليس» в сопоставлении с теоретическими положениями, изложенными в «Аль-Муфасссале». Статья способствует более глубокому пониманию системы отрицания в арабском языке через взгляды аз-Замахшари.

Ключевые слова: Mushabbahot bi-laysa (o'xshatilgan vositalar), Zamaxshariy nazariyasi, Laysa fe'li, Sintaktik munosabat (ism–xabar), Inkor vositalari.

Kirish

اسم ما ولا المشبهتين بليس

هو في قولك ما زيد منطلقا ولا رجل أفضل منك. وشبههما بليس في النفي والدخول على المبتدأ والخبر إلا أن ما أوغل في الشبه بها لاختصاصها بنفي الحال، ولذلك كانت داخلة على المعرفة والنكرة جميعا فقل ما زيد منطلقا، وما أحد أفضل منك. ولم تدخل لا إلا على النكرة فقل لا رجل أفضل منك، وامتنع لا زيد منطلقا. واستعمال لا بمعنى ليس قليل ومنه بيت الكتاب:

من صد عن نيرانها فأننا ابن قيس لا براح

أي ليس براح والمعنى لا أبرح بموقفي.

“ما” va “لا” ning laysaga o'xshatilishi

“Zayd ketayotgan esmas” va “Sendan afzal hech bir kishi yo'q” kabi iboralarda bo'lgani kabi “ما” ham, “لا” ham laysaga inkorda hamda muftado²⁶ va xabar²⁷ga kirishida o'xshaydi. Ammo “ما” ning laysaga o'xshashi kuchliroq, chunki u aynan hozirgi holatni inkor qilishga xoslangan. Shu sababdan “ما” ham ma'rifa²⁸ ismlarga

²⁶ Muftado – gapning egasi

²⁷ Xabar – gapning kesmi

²⁸ Ma'rifa – aniq holatdagi so'z

ham nakra²⁹ ismlarga ham kiradi:

ما زيد منطلقا – Zayd ketayotgan emas

لا رجل أفضل منك – Sendan Afzal hech kim yo‘q

“لا” esa faqatgina nakraga kiradi, shuning uchun:

لا رجل أفضل منك – Sendan Afzal hech kim yo‘q (to‘g‘ri)

لا زيد منطلقا – Zayd ketayotgan emas(oto‘g‘ri)

“لا” ning laysa ma’nosida ishlatilishi oz uchraydi. Bunga misol quyidagi bayt:

من صد عن نيرانها فأنا ابن قيس لا براح

Ma’nosi: Kim uning olovlaridan yuz o‘girsas, men Qays o‘g‘liman - لا براح³⁰

Bu bayt Sibavayhning “Al-kitab” asarida keltirilgan.

Sharh va izoh:

ما ولا المشبهتين بليس — “ما” va “لا” — laysaga o‘xshatilgan (harflar)

Bu jumlada aytilmoqdaki, arab tilida ما (inkor) va لا (inkor) ba’zi o‘rinlarda laysa (emas) ning vazifasida ishlatiladi.

Ular laysaning *ikki* asosiy vazifasida unga o‘xshaydi:

1- Nafiy (inkor) ifodalashi

2- Muftado va xabarga kirishi

(Laysa muftadoni nasb³¹, xabarni esa rof³² qiladi).

هو في قولك ما زيد منطلقا ولا رجل أفضل منك

— “Zayd ketayotgan emas”

— “Sendan afzal hech kishi yo‘q”

Demak, “ما” ham, “لا” ham inkor qiladi va jumlada laysaga o‘xshab ishlamoqda.

وشبههما بليس في النفي والدخول على المبتدأ والخبر

Ya’ni “ما” va “لا” quyidagilarda laysaga o‘xshaydi:

✓ 1) Inkor ma’nosini berishi;

✓ 2) Muftado va xabarga kirishi;

²⁹ Nakra – noaniq holatdagi so‘z

³⁰ لا براح – ketmasman, tark etmasman.

³¹ Nasb – tushum kelishigi

³² Rof – bosh kelishigi

إلا أن ما أوغل في الشبه بها

“ما” ning laysaga o‘xshashi kuchliroq, sabab:

“ما” faqat hozirgi paytdagi holatni inkor qilish uchun ishlatiladi. Laysa ham shunday holda ishlatiladi. Masalan:

ما زيد منطلقا — Zayd hozir ketayotgan emas

فكانت داخلة على المعرفة والنكرة جميعا

ما:

✓ ma’rifa (aniq) ismlarga,

✓ nakra (noaniq) ismlarga kiradi. Misollar:

ما زيد منطلقا — ma’rifa (Zayd)

ما أحد أفضل منك — nakra (biror kimsa)

ولم تدخل إلا على النكرة

“لا” esa faqat nakra ismlarga kiradi. Shuning uchun:

✓ To’g’ri: لا رجل أفضل منك — sendan afzal hech kim yo‘q

✗ Noto’g’ri: لا زيد منطلقا — Zayd ketayotgan emas

Chunki “لا” ma’rifa ismlarga kira olmaydi.

واستعمال لا بمعنى ليس قليل

“لا” ning laysa ma’nosida ishlatilishi kam uchraydi. Ya’ni “لا” odatda “yo‘q” ma’nosida keladi, lekin ba’zan “emas” (laysa) ma’nosida ham keladi — bu kam qo‘llanadi. Misol she’r:

من صد عن نيرانها فأننا ابن قيس لا براح

Bu yerda:

لا براح = ليس براح → men ketmayman, joyimdan jilmayman.

Bosh ma’no:

“Kim uning olovidan yuz o’g’irsa, men Qays o’g’liman — joyimdan qo‘zg’almayman”.

Xulosa:

Arab tilidagi “ما” va “لا” inkor harflarining laysaga o‘xshatilgan ishlatilishi nahv ilmidagi muhim mavzulardan biridir. Har ikki harf inkor ma’nosini ifodalashi

hamda muftado va xabar tarkibiga kirishi bilan laysaga o'xshaydi. Biroq "ما"ning o'xshashi kuchliroq bo'lib, u hozirgi holatni inkor qilishga xoslanganligi sababli ma'rifa hamda nakra ismlarga birdek qo'llanadi. "لا" esa faqat nakra ismlar bilan keladi va laysa ma'nosida ishlatilishi juda kam uchraydi. Sibavayh kitobidan keltirilgan she'riy misolda "لا براح" ning laysa o'rnida kelishi ham ana shu noyob qo'llanmalardan biridir. Demak, "ما" va "لا" ning laysaga o'xshash jihatlarini farqlash arab tili sintaksisini to'g'ri anglash va matnlarni aniq talqin qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Jurjoni, Abd al-Qohir. Asrar al-Balagha. Qohira: Darul-Kutub al-Ilmiyya, 2006.
2. Ibn Hishom al-Ansori. Mughni al-Labib an Kutub al-Ararib. Bayrut: Darul-Fikr, 2014.
3. Ibn Malik, Jamaluddin. Alfiyya ibn Malik. Bayrut: Darul-Kutub al-Ilmiyya, 2012.
4. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
5. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
6. Jo'rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
7. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.

8. RAXIMJONOV, M. (2025). PUBLIC OPINION ABOUT KHOJA AKHRARI VALIA AND MIRZA ULUGBEK. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 73-77.
9. Nugmanovich, R. M. Self-education And Self-improvement. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 998-1001.
10. Турсуналиева, М. А. (2021). “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ДОСТОНИНИНГ НАЪТ ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА). *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 357-360.
11. Musaev, I. X. (2025, December). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING ESTETIK VA FALSAFIY TALQINI SAIDBEK HASANOV TADQIQOTLARIDA. In *Conferences* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-70).
12. Victoria, M. (2022). Peculiarities of the functioning of borrowings in the media of the arab countries.
13. Raxmonov, A. K. (2024). *Al-Fargʻoniyning «Usturlob yasash haqida kitob»ining Britaniya muzeyida saqlanayotgan “OR 5479” raqamli qoʻlyozma nusxasi. Til va adabiyot.uz*, 2024(1), 22–26.
14. Raxmonov, A. K. (2023). *Oliy taʼlim muassasalarida arab tilini oʻqitishning zamonaviy usullari*. In “Bir makon, bir yoʻl” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toʻplami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
15. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining oʻrganilishi. Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.
16. Gulmuradovna, J. N. (2025). XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA TIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Indexing*, 1(1), 86-90.